



## FONETIK RITMIKA TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHDA AKT NING ROLI

O.S.Ishmatova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti

"Maxsus pedagogika" kafedrasi o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7353441>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 20<sup>th</sup> November 2022

Online: 24<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

*Fonetik ritmika, logopediya, surdopedagogika, AKT, metodika, korreksiya, postanovka, avtomatizatsiya, qo'l, oyoq, harakat, diqqat, eshituv idroki, motorika, musiqa, ritm, harakat, mutq, VENN diagrammasi, kommunikatsiya, Pfaffenrod, Vlasovalar, Г. А. Волкова, Т. М. Гребенко, овоз, nutqiy nafas, dislaliya, electron qo'llanma, prosodika, nutq-harakat...*

Maxsus pedagogikada alohida ta`lim ehtiyojiga ega shaxslarning kommunikativ faoliyati orqada qolishi ilmiy isbotlangan faktlardan biridir. Ular katta hayotga qadam qo'yishdagi qiyinchiliklar aksariyat hollarda nutqiy ko'nikmalardagi kamchilik va nuqsonlardir. Alohida ta`lim ehtiyojiga

### ABSTRACT

*Ushbu maqola alohida ta`lim ehtiyojiba ega bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirishda fonetik ritmika texnologiyasini qo'llash uchun AKT ning o'rni haqida.*

muxtoj bo'lganlarning 2 ta toifasi aynan kommunikatsiya jaragonida juda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Ular eshitishida nuqsoni bo'lganlar va nutqiy nuqsonga ega bo'lganlardir. Quyidagi VENN diagrammasida har ikkisining nutqiy imkoniyatlari taqqoshlangan.



## ESHITISHDA NUQSONI

## BOR BOLALAR:

- og'zaki nutqdan foydalanmaydi;
- ovozi va nutqiy nafas orqada qoladi;
- verbal kommunikatsiya rivojlanmagan;
- imo-ishora nutqining gram-matik tuzilishi buziladi;
- tovush va ovoz haqidagi tasavvurlari yetarli emas.

## NUTQIDA NUQSONI

## BOR BOLALAR:

- tovushlar talaffuzida nuqsoni bo'ladi;
- fonematik eshituv buziladi;
- mayda qo'l motorikasi rivojlanishda orqada qoladi;
- nutqning leksik- grammatic komponentlari orgada qoladi;
- nutqning tempi va ritmi buziladi

Og'zaki kommunikatsiya jarayoni ustida ishlash.

Mamlakatimizda soha mutaxassislari bu borada juda ko'plab tadqiqtlar olib borib, bunday insonlarning kommunikatsiya jarayonini normallashtirishga katta hissa qo'shib kelmoqdalar.

Biz tomondan e'tirof etilayotgan Fonetik ritmika metodikasi nutqning aynan og'zaki shakliga ta'sir ko'rsatib, uning ifodaliligi, ravonligi, prosodik jihatdan korreksiyanishiga yordan ko'rsatadi. Olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlar natijasida biz og'zaki nutqning rivojlanishi uchin zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni fonetik ritmikada mavjud ekanini e'tirof etamiz. Chunki Fonetik ritmika bu maxsus mashqlar to`plami bo`lib, unda nutq va harakat uyg'unlashgan holatda nutqiy materialni (tovush, bo`gin, matn ) umumiy tana (qo'l, barmoqlar, oyoq, bosh va korpus ) harahatlari bilan

uyg'unlashtirgan holda talaffuz etishdir .

<sup>1</sup>Ushbu metodikani rus pedagog olimlari Pfaffenrod va Vlasovalar fanda kiritgan bo`lib, shu jumladan Г. А. Волкова, Т. М. Гребенко va boshqalar ushbu metodikani ilgari surganlar. Hozirda Rossiya va bir qancha xorijiy davlatlar amaliy surdopedagogikasida eshitishida muammosi bo`lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishda samarali metodikalardan biri sifatida foydalilanayotgani aniqlandi.<sup>2</sup> (Андреева Наталия Алексеевна ГОУ РК № 4

<sup>1</sup> Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish texnologiyasi (0-1 Sinf o'quvchilar misolida)  
O.S.Ishmatova UDK: 370; 373.167.1; 376 Chirchiq-2022y

<sup>2</sup> ( Опубликовано 26.02.2020 ) Стародубцева Наталия Васильевна



учитель фонетической ритмики 14.11.2018 ). Молодой учёный 2018 yil iyun oyidagi 25-№ sonida "Фонетическая ритмика как средство коррекции произносительных навыков детей с нарушениями слуха во внеурочное время» deb nomlangan maqolada ushbu metodaka haqiqatan ham har tomonlama samarali ekani olingen natijalarda ko`rsatilgan.Undan tashqari, Udmirtsk respublikasi amaliyotchi defektologgi Елена Фокина «Фонетическая ритмика как метод формирования и коррекции произносительной стороны речи» deb ataluvchi proektini yo`lga qo`ygan.<sup>3</sup> Unga ko`ra fonetik ritmika metodikasi duduqlanish, rinolaliya , dizartriya, bradilaliya , taxilaliya, battarizm kabi nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda samarali yo`l sifatida e`tirof etiladi. Fonetik ritmika metodikasiga ko`ra mashg'ulotlardagi harakatlar va og'zaki nutqni o'z ichiga olgan barcha mashqlar quyidagilarga qaratilgan:

- nutqiy nafasni normallashtirish va u bilan bog'liq bo'lgan nutqning uzviyligi;
- me'yordan qo'pol og'ishlarsiz normal tembrni saqlab, ovozning kuchi va balandligini o'zgartirish ko'nikmalarini shakllantirish;
- tovushlarni va ularning birikmalarini alohida, bo'g'in va so'z turkumlarida, so'zlarda, iboralarda to'g'ri ifodalash;
- nutqiy materialni ma'lum bir sur'atda ifodalash;
- turli ritmlarni idrok etish, farqlash va ifodalash;

-o'z his-tuyg'ularini turli intonatsion vositalar orqali ifodalash ko'nikmasini shakllantirish.

Ovoz, nutqiy nafas, temp va ritmni rivojlantirish mashqlari musiqa jo'rligida va musiqasiz amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar mazmuniga faqat harakatlarni, talaffuzsiz - musiqiy va ritmik stimulyatsiyalar bo'lgan mashqlar ham kiritilgan. Ushbu mashqlarning maqsadi nafas olishni normallashtirish, ritm tuyg'usini rivojlantirish va harakatni rivojlantirishdir. Ushbu harakatli mashqlar ritm hissi va nafas olish apparatidan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, musiqaga mos harakat qilish, bolalarning motorikasini rivojlantirishning samarali usullaridan biridir.

Fonetik ritmika texnologiyasida ham korreksion ish avvalo shaxsning nutqida mavjud bo'limga tovushlarni postanivka qilishdan boshlanadi. Buning uchun oldin korreksion pedagog logopedik mashg'ulotlarda bola bilan tovushning artikulyatsion holati bilan yakka tartibda ishlagan bo'lishi lozim. Fonetik ritmikaning yana bir avzal tomoni bola tovushning kinestetik jihatini nafaqar artikulyatsion muskullarda balki umumiyl motorikasi kinesteziyasoda his qiladi. Fonetik ritmika mashqlari orqali tovushlarni postanivka qilish davrini "Quvnoq fonetik ritmika " elektron to'plamida namoish qilib berdik. Ushbu to'plamda nutq tovushlarining fonetik ritmika mashqlari jamlangan bo'lib, metodika o'zbek tili orfoepik qoidalariga rioya qilinga holda takomillashtirib yaratildi. Metodikani nutqida hamda eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan barcha mashg'ulotlarda, ayniqsa tovushni hosil

<sup>3</sup> (<https://www.maam.ru/detskijsad/proekt-foneticheskaja-ritmika-kak-metod-formirovaniya-ikoreksiiproiznositelnoi-storony-rechi-doshkolnikov.html>)



qilishda, ovozni shakllantirishda, ritmika mashg'ulotlarida yakka va frontal mashg'ulotlarda ishlatishni tavsiya etilamiz. Biz bunday electron qo'llanma yaratishimizdan asosiy maqsad, hali -defektolog yordamidan foydalanishga ulgurmagan oilalarga metodik ko'mak berish; -bolalarga masofaviy korreksion yordam ko'rsatish; -korreksion pedagoglarni zamonaviy usulda tayyorlangan metodika bilan qurollantirish; -inklyuziv sinflarda dars berayotgan pedagoglarga metodik ko'mak.

Hozirda **ko'plab** logopedik shahobchalarda logopedlar tovushlarni korreksiyalashda taqlid, mexanik va aralash usullardan boshqa usullardan foydalanishmayapti, hatto-ki logoritmikadan ham foydalanmasliklari achinarli. Buning sababi esa logoped xonasining torligi deb aytishmoqda, ammo fonetik ritmika mashqlarini tashkil qilish uchun katta maydon zarur bo'lmaydi. Ayniqsa individual mashg'ulotlarda qulayliklar yanada ortadi.

Eshitishida nuqsoni bor bolalar ixtisoslashtirilgan mакtab-internatlarda olib boriladigan ritmika mashg'ulotlarining asosini fonetik ritmika tashkil etadi. Bunday mashg'ulatlarda bolalarning nutqiy, harakat va ritm hissi qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish ishlari olib boriladi. Amaliy logopediyada esa mashg'ulotning istalgan qismida fonetik ritmikadan foydalansa bo'ladi.

**Dislaliya tashhisli o'quvchilar uchun fonetik ritmikani qo'llagan holda taxminiy logopedik mashg'ulot ishlansasi:**

**Mavzu:** R tovushni ochiq bo'g'inda mustahkamlash.

**Ta'limiy maqsad :** R tovushiga oid mashqlarni bajarishga o'rgatish; tovushning to'g'ri artikulyatsiyasini mustahkamlash; hosil bo'lgan ko'nikma asosida ravon so'zlashuvga o'rgatis;

**Tarbiyaviy maqsad :** to'g'ri va ravon so'zlashishga bo'lgan istakni tarbiyalash; o'z kuchiga va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni tarbiyalash;

**Korreksion maqsad :** R tovushini avtomatlashtirish; tovush va bo'g'irlarni kinestetik holatini his qilishni shakllantirish; fonetik – fonematik idrokni rivojlantirish; nutq apparatining dinamik va statik holatlarini rivojlantirish; ovoz va nafas jarayonini normaga keltirish; tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni korrektsiyalash; tovushlarni; R tovushlarni bo'g'irlarda avtomatizatsiyalash; lug'atini boyitish; xotirani mustahkamlash, tafakkurni rivojlantirish.

**Kompetentsiya:** Egallagan nutqiy ko'nikmani mustaqil nutqda qo'llash.

**Jihoz:** Tovush postanovkasi uchun zondlar, qo'shimcha buyumlar, tovushga doir ko'rgazmalar; namunaviy, predmetli,mazmunli rasmlar, kartochkalar , elektron darslik.

**Mashg'ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** Salomlashish.

Fasl, oy, hafta kunlari, sana, ob-havo, iqlim o'zgarishlari, faslga doir bayramlar, faslga doir mehnat haqida savol-javob.

**II. Nutqiy nafas va ovoz mashqlari.**

-Bishlang'ich pozitsiyani tutib, og'izdan chuqur nafas olamiz va qo'llarni a-a-a-a-deb yuqoriga ko'taramiz;

-Bishlang'ich pozitsiyani tutib, og'izdan chuqur nafas olamiz va qo'llarni o-o-o-o-deb ikki yonga yoyamiz;

-Bishlang'ich pozitsiyani tutib, og'izdan chuqur nafas olamiz va qo'llarni u-u-u-u



deb labalardan tekis oldinga harakatlantiramiz;

- Bishlang'ich pozitsiyani tutib, og'izdan chuqur nafas olaib, qo'llarni yelkadan yuqoriga tekis yo'naltirgan holda qo'llarni i-i-i-i-deb yuqoriga ko'taramiz.

- Bishlang'ich pozitsiyani tutib, og'izdan chuqur nafas olaniz va qo'llarni a-a-a-a-a deb yuqoriga ko'taramiz.

O'tgan mashg'ulotda bajarilgan dinamik va static Lab mashqlari va til mashqlari (5-6



soniyadan). Ovoz mashqlari. (individul tanlanadi)

### III. Asosiy qism:

Log: oyna orqali meni kuzat va ortimdan qaytar.... Tovushni ochiq bo'g'inda mustahkamlash. R tovushini mustaxkamlash uchun mashqlar:

1. r-----rrrr (bishlang'ich pozitsiyani tutib, og'izdan chuqur nafas olaniz va qo'llarni a-a-a-a-a deb yuqoriga ko'taramiz).

2. ar-----or-----o'r-----er-----ir-----



3. or- ar- o'r- er- ir va hakazo

4. r-----a r-----o r-----o' va boshqa unililar bilan


5. ra-ro-ro' ra-ro-ro'

6. ara oro uru aro aru oru ura uro

7. ra-ra-ra-ra-ro ro-ro-ro-ro-ro to'g'ri bo'g'inlar qatorida

8. so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxirida

9. 10,11- mashqlar huddi r tovushidek  
r va l tovushini farqlash uchun mashqlar  
la-ra la-ra lo-ro lo-ro



**IV. Musiqali logoritmik mashlarni bajarish....(mavsumiy mavzudagi)**

**V. Yangi mavzuni mustahkamlash.** Bo'g'lnarning fonetik holatini takroran bajarish:

**VI. Darsni yakunlash:**

Rag'batlantirish.

Uyga vazifa o'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash.

Xulosa qilib shuni aytish joiz-ki, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning kommunikativ faolligini rivojlantirish bo'yicha logopedik ishlar tizimida fonetik ritmkadan foydalanish har bir bolaning nutqini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bolalarda tovushlar hosil bo'lishi bilan birga, nutqining prosodik

komponentlari (ovozi kuchi, ovoz balandligi, nutq) rivojlanadi. Bola tovushlar va bog'lnarni idrok etish va takrorlashga o'rganadi. Bularning barchasi bolaning nutqini yanada ravonva intonnatsion jilvador shakllanishi uchun asos bo'la oladi. Fonetik ritmika nutqiy nuqsoni bor bolalarning so'z boyligini shakllantirishga qaratilgan korreksion harakatlar tizimiga qo'shimcha bo'lib xizmat qilishi mumkin.



### References:

1. M.Y. Ayupova Logopediya Toshkent-2007
2. S.J.Achilova Dislaliya dizartriya Toshkent - 2022
3. Ишматова, О. С. (2021). РОЛЬ ФОНЕТИЧЕСКОЙ РИТМИКИ В РАЗВИТИИ УСТНОЙ РЕЧИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА. In *СТУДЕНЧЕСКИЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 187-188).
4. Ишматова, О. С. (2021). Цели и задачи исследования развития устной речи детей с нарушениями слуха средствами фонетической ритмики. in *наука, образование, инновации: актуальные вопросы и современные аспекты* (pp. 241-243).
5. Ishmatova, O. S., & Abdujalil O'g'li, H. A. (2022). MAVZU: Imkoniyati cheklanganlar faoliyatida akt ning roli. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI*, 2(11), 24-28.
6. Ishmatova, O. S. (2022). Nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda fonetik ritmikaning roli. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI*, 2(10), 378-380.
7. Ishmatova, O. S. (2022). Boshlangich talim sifatini yangilashda umumtalim maktablarda logopedik shaxobchalar faoliyatining orni. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(10), 388-391.
8. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. Chirchiq, 1(1), 70.
9. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning og/zaki nutqini fonetik ritmika orqali shakllantirishda "Quvnoq fonetik ritmika" texnologiyasining samarasi. Муғаллим, 1(2), 135-138.
10. Ишматова, О. С. (2020). Инклузив таълимга кохлеар имплант бўлган болаларни муваффақиятли реабилитация қилиш омиллари. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 186-195.
11. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). LOGOPEDIK MASHG'ULOTLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA ARTIKULYATSION GIMNASTIKA O'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI*, 2(10), 360-365.
12. Кодирова, Ф. У., & Кабилова, Ш. Х. (2021). ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИННОВАЦИОННОГО КЛАСТЕРА. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 109-115.